

JISMONIY TARBIYA VA SPORT ILMIY TADQIQOTLAR INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.33/01.02.2022.Ped.146.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

JISMONIY TARBIYA VA SPORT ILMIY TADQIQOTLAR INSTITUTI

ABDUAZIMOV SABIRJON UTKUROVICH

OLIV HARBIY TA'LIM MUASSASALARIDA KURSANTLARNI
JISMONIY VA HARBIY-AMALIY TAYYORGARLIGINI
TAKOMILLASHTIRISH

13.00.04 – Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari, sog'lomlashtirish va adaptiv jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya
AVTOREFERATI

Chirchiq – 2024

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doktor philosphy (PhD) on
pedagogical sciences**

Abduazimov Sabirjon Utkurovich

Oliy harbiy ta’lim muassasalarida kursantlarni jismoniy va harbiy-amaliy tayyorgarligini takomillashtirish.....5

Абдуазимов Сабиржон Уткурович

Совершенствование физической и военно-прикладной подготовленности курсантов в высших военных учреждениях.....25

Abduazimov Sabirjon Utkurovich

Improving the physical and military-applied preparedness of cadets in higher military institutions.....49

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....53

JISMONIY TARBIYA VA SPORT ILMIY TADQIQOTLAR INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.33/01.02.2022.Ped.146.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

JISMONIY TARBIYA VA SPORT ILMIY TADQIQOTLAR INSTITUTI

ABDUAZIMOV SABIRJON UTKUROVICH

OLIV HARBIY TA'LIM MUASSASALARIDA KURSANTLARNI
JISMONIY VA HARBIY-AMALIY TAYYORGARLIGINI
TAKOMILLASHTIRISH

**13.00.04 – Jismoniy tarbiya, sport mashg'ulotlari, sog'lomlashtirish va adaptiv
jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi**

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya
AVTOREFERATI

Chirchiq – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiya mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida V2023.4.(PhD).Ped.6714 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi Jismoniy tarbiya va sport ilmiy tadqiqotlar institutida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyumi)) Ilmiy kengash vab-sahifasining www.uzdjtsu.uz va “ZiyoNet” Axborot ta’lim portalida (www.ziynet.uz.) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Ishtayev Dilshod Ravshanbekovich
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori
(PhD), dotsent

Rasmiy opponenlar:

Kochkarov Atabek Axmatvayevich
pedagogika fanlar doktori (DSc), dotsent
Xasanov Axadjon Tursunovich
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori
(PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot:

O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti

Dissertatsiya himoyasi Jismoniy tarbiya va sport ilmiy tadqiqotlar instituti huzuridagi DSc.33/01.02.2022.Ped.146.01 raqamli Ilmiy kengashning 202_-yil “_” _____ soat ____ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 111709, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Metallurgchilar ko‘chasi, 15-uy, Tel.: (0-370) 717-17-79, 717-27-27, faks: (0-370) 717-17-76, Veb-sayt: www.uzdjtsu.uz, e-mail: uzdjtsu@uzdjtsu.uz. (O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti “Madaniyat saroyi” 3-qavat kichik majlislar zali),

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqam bilan ro‘yxatga olingan), (Manzil: 111709, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Sportchilar ko‘chasi, 19- uy. Tel: (0-370) 717-17-79,717-27-27, faks: (0-370) 717-17-76.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil “_” _____ kuni tarqatildi
(2024-yil“_” _____ da _____ raqamli reyestr bayonnomasi)

F.A.Kerimov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash raisi, p.f.d., professor

X.X.Qurbonov

Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash ilmiy kotibi,
p.f.b.f.d. (PhD)

O.J.Dadaboyev

Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy
seminar raisi p.f.d. (DSc), dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi))

Dissertasiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Dunyoda so‘ngi yillarda harbiy siyosiy vaziyatlarning keskin o‘zgarib borayotganligi har bir harbiy xizmatchining yuqori vatanparvarlik, maxsus bilim, ko‘nikma va malakalarini rivojlantirishni talab qilmoqda. Bu esa kursantlarning harbiy-amaliy va jismoniy tayyorgarligini takomillashtirish bo‘yicha vosita va usullarni jangovar mashg‘ulot jarayonlariga kiritish orqali strategik rejalarni ishlab chiqish talabini qo‘ymoqda. Xususan, jismoniy tayyorgarlik – jangovar tayyorgarlikning asosi sifatida jangovar vazifalarni bajarishda jismonan tayyor bo‘lishga qaratilmoqda. Qurolli kuchlar tizimida professional jismoniy tarbiya jismoniy tayyorgarlik tizimining muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, harbiy xizmatchilarning muvaffaqiyatli kasbiy faoliyatiga obyektiv tayyorlanishiga hissa qo‘shmoqda. Bundan kelib chiqadiki, harbiy xizmatchilarning jismoniy tayyorgarligi darajasini mutaxassis sifatida shakllantirish, shuningdek, ularning jismoniy va harbiy tayyorgarligini oshirish samaradorligi dolzarbdir.

Jahonda rivojlangan davlatlar Qurolli Kuchlarida amalga oshirilayotgan islohotlar, milliy va xalqaro xavfsizlikni ta‘minlash nuqtai nazaridan, harbiy xizmatchilarning jismoniy tayyorgarligi lokal janglarda g‘alabaning asosiy mezon bo‘lib xizmat qilishini bugungi kunda har bir harbiy xizmatchi anglab yetishini ko‘rsatmoqda. Harbiy kursantlarni jismoniy tayyorgarligi, jangovarlik qobiliyatlari hamda maxsus tayyorgarligini oshirish asosida ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Jismoniy tayyorgarligini rivojlantirish kursantlarning jismoniy tayyorgarlik tizimida harbiy xizmatchilarga bo‘lgan talablarni va ushbu tizimlarning jismoniy tayyorgarlik tizimi bilan muvofiqlikda amalga oshirilmoqda. Shu sababdan kursantlarning individual xususiyatlarini hisobga olgan jismoniy va harbiy-amaliy tayyorgarlik mashg‘ulotlar metodikasini takomillashtirish zaruratini ko‘rsatmoqda.

Respublikamizda harbiy xizmatchilarning kuchli axloqiy-ruhiy irodasini, jismoniy va turli qiyinchiliklarni yengib o‘tish sifatlarini shakllantiruvchi, har qanday jangda, potensial dushman bilan yakkama-yakka jang qilishiga qarshilik ko‘rsatish uchun harbiy xizmatchining jismoniy tayyorgarliklarini takomillashtirib borish muhim ahamiyat kasb etmoqda. “Mamlakatimizning mudofaa qobiliyatini yanada mustahkamlash, Qurolli Kuchlarning jangovar shayligi hamda jangovar qobiliyatini oshirish, qo‘shinlarni zamonaviy qurol-aslaha turlari va harbiy texnika bilan qayta jihozlash, harbiy kadrlar tayyorlash, harbiy xizmatchilarni ijtimoiy himoya qilish, shuningdek, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash tizimini takomillashtirish”¹ vazifasi belgilab berilgan. Rivojlangan davlatlar jismoniy tayyorgarlik tizimini yaratishda real holatdagi jangovar harakatlar tajribasi, jangchilarni tayyorlashda jismoniy tayyorgarlik tizimini takomillashish talab etilmoqda. Shu jihatdan ham Oliy harbiy ta‘lim muassasalari kursantlarini jismoniy

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 24-yanvardagi PQ-2738-son “O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarini isloh qilish va yanada rivojlantirish vazifalarini amalga oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida”gi Qarori.

va harbiy – amaliy tayyorgarligini takomillashtirish asosida harbiy xizmatchilarning jangovar tayyorgarligini oshirish dolzarb vazifalardan hisoblanmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 24-yanvardagi PQ-2738-son “O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarini isloh qilish va yanada rivojlantirish vazifalarini amalga oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida”gi Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 29-iyundagi, 266-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy harbiy ta’lim muassasalarida o‘qishga nomzodlarni saralab olish va qabul qilish, kursantlarni o‘qishdan chetlashtirish va qayta tiklash tartibi to‘g‘risidagi nizomga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida”gi Qarori hamda mazkur sohaga doir boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi. O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida jismoniy tayyorgarlik o‘z vazifalarini jismoniy tayyorgarlik jarayonida eng to‘liq amalga oshiradi – harbiy-amaliy faoliyat xususiyatlarini hisobga olgan holda amalga oshiriladigan maqsadli, nazorat qilinadigan jismoniy takomillashtirish jarayonini optimallashtirishga xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalarini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlar Akademiyasining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovasion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” bilan bog‘liq ustuvor yo‘nalishlar doirasida amalga oshirilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Mamalakatimizda oliy harbiy ta’lim muassaslari kursantlarining harbiy amaliy va jismoniy tayyorgarligini takomillashtirish bo‘yicha yetarli darajada ahamiyat berilmagan, olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlarining barchasi A.A.Atashayhev, A.T.Hasanov, A.A.Kochkarov, R.A.Matchanov, A.G.Mirzakulov kursantlarining maxsus va jangovar tayyorgarligini takomillashtirishga qaratilgan².

Mustaqil davlatlari hamdo‘sligi olimlarining ilmiy tadqiqotlarida kursantlar jismoniy tayyorgarligini takomillashtirish bo‘yicha ishlar kursantlarning jismoniy tayyorgarligini harbiy ta’lim nazariyasi va amaliyotida muammoning ushbu jihatiga yetarlicha ochib berilmaganligini ko‘rsatadi. A.A.Volkov, A.M.Bukachev, V.N.Utenko, V.A.Shyogolev, G.N.Blaxin, V.P.Sushenko, V.V.Ryavchuk, G.Dmitriev, B.V.Endaksev, Sh.A.Kerimov³ kabi olimlar mahalliy olimlar o‘z ilmiy

² Atashayhev A.A. Jangovor-jismoniy tayyorgarlik. Darslik 2016.-350 b.; Хасанов А.Т. Чақириккача ҳарбий таълим факультети талабаларининг касбий-амалий жисмоний тайёргарлиги педагогик технологияси. педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD). док. Дисс. Автореферати. // Хасанов Ахаджон Турсунович. Ч, 2018. – 63 б.; Кочкаров А.А. Технология профессионально-прикладной подготовки курсантов образовательных учреждений МВД Республики Узбекистан. DSc диссертацияси. Чирчиқ, 2022. - 180 с.; Matchanov R.A. IIV akademiyasi kursantlarida tezkor-kuch sifatlarini jangovor sambo maxsus mashqlari yordamida takomillashtirish.(PhD) dissertatsiyasi. Chirchiq, 2024. - 56 b.; Mirzakulov A.G. Krossfit vosita va usullari yordamida kursant qizlarning jismoniy tayyorgarlik darajasini takomillashtirish. PhD dissertatsiyasi. Chirchiq, 2024. - 58 b.

³ Волков А.А. Педагогические условия формирования профессионально-прикладной физической подготовленности сотрудников органов внутренних дел в период первоначального обучения / А.А. Волков: автореф. дис. канд. пед. наук: -Тула, 1999.-24 с.; Букачев А.М. Организация и проведение

ishlarida jismoniy tayyorgarligi jarayonini tashkil etish va boshqarish muammosini nazariy jihatdan ishlab chiqish darajasiga o'rganishgan.

Dunyoning rivojlangan mamlakatlari olimlari P.M.Ribisi, S.Stanard, H.Tate, G.Glassman, T.J.Cooper, M. M.Smith, A.J.Sommer, B.E.Starkoff va S.T.Devorlar⁴ kursantlarning jismoniy tayyorgarligi holatini o'rganish, jismoniy tayyorgarlik mashg'ulotlari jarayonida kursantlarni jangovar tayyorgarligini oshirishga qaratilgan ilmiy izlanishlar olib borishgan.

Yuqorida keltirilgan fikr mulohazalarni umumlashtirgan holda bugungi dunyoda ro'y berayotgan harbiy ziddiyatlarning ko'payib borayotganligi harbiy xizmatchilardan yuqori darajadagi jismoniy tayyorgarlikni talab etadi. Yuqori darajadagi jismoniy tayyorgarlikka ega bo'lmagan kursantlarda jangovar tayyorgarlik ko'rsatkichlarini pasayishiga olib keladi. Shu boisdan, kursantlarning harbiy-amaliy va jismoniy tayyorgarligini takomillashtirishda kursantlarning jismoniy tayyorgarligi va individual xususiyatlari hisobga olinmaganligi mazkur tadqiqot mavzusining dolzarbligini belgilab beradi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi bilan bog'liqligi. Dissertatsiya ishi O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universitetining 2020-2024 yillarga mo'ljallangan ilmiy tadqiqot ishlari strategiyasi va istiqbolli rejasiga kiritilgan mavzusidagi ilmiy – tadqiqotlar doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi tizimidagi oliy harbiy ta'lim muassasalari kursantlarning jismoniy tayyorgarligini takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

ilmiy uslubiy adabiyotlarni tahlil qilish orqali kursantlarining jismoniy tayyorgarligi holatini o'rganish asosida jismoniy tayyorgarlikni oshiruvchi mashg'ulotlar klasterini ishlab chiqish;

kursantlarining jismoniy tayyorgarligini aniqlash asosida maxsus jismoniy, jangovar va harbiy – amaliy tayyorgarliklarini oshiruvchi kunlik va haftalik mashg'ulot yuklamalarini optimallashtirish;

harbiy oliy ta'lim muassasalari kursantlarning psixologik holatini aniqlash

военно-спортивных игр в процессе подготовки курсантов военно-физкультурного вуза / А.М. Букачев: автореф. дис.канд. пед. наук: -С.-Пб., 1999. - 24 с.; Утенко В.Н., Шёголев В.А., Дмитриев Г.Г., Блахин Г.Н., Сушенко В.П., Рявчук В.В. Физическая подготовка иностранных армий. - СПб., 2007. – С.243-277.; Дмитриев Г.Г., Эндаксов Б.В., Керимов Ш.А. Физическая подготовка военнослужащих армий ведущих стран мира к выполнению задач в необычных боевых и климатических условиях // Актуальные проблемы физической подготовки силовых структур. 2012. - С. 42-47.

⁴ Ribisi P.M. Diurnal variation in exercise prescription. *Medicine and Science in Sports*. – 1989. – Vol. 9 (1). – P. 68. Stanard S. Physical ability testing. *Law and Order, USA*. – 1994. – Vol. 14 (8). – P. 22–23.; Tate H. Fatigue, Stress and Physical Conditional. *Law and Order, USA*. – 1999. – Vol. 9. – P. 72–76. Greg Glassman. First-class CrossFit coach. 2002.: 292.b; Troy Dodson. The whole truth about crossfit. 2010.: - P.10.; Cooper, T. J. Crossfit training for law enforcement. *CrossFit Journal Article*. – 2007. – N 61. – P. 7.; Smith M. M., Sommer A. J., Starkoff B. E., Devor S. T. Crossfit-based high-intensity power training improves maximal aerobic fitness and body composition. *Journal of Strength & Conditioning Research*. – 2013. – N 27 (11). – P. 3159–3172.

asosida jismoniy tayyorgarlikni oshiruvchi maxsus mashqlar majmuasini takomillashtirish;

kursantlarning jismoniy (kuch, tezlik, chidamlilik, chaqqonlik, egiluvchanlik) va maxsus harakat tayyorgarliklarini (to'siqlar yo'lagini yengib o'tish, qurol va qurolsiz bajariladigan harakatlar, tog' tayyorgarligi) oshiruvchi mashqlar dasturini takomillashtirish asosida kursantlarning jismoniy va maxsus harakat tayyorgarligi oshganligini tajribada asoslash.

Tadqiqotning obyekti sifatida O'zbekiston Respublikasi Oliy harbiy ta'lim muassasalari kursantlarining jismoniy tayyorgarlik o'quv mashg'ulotlar jarayoni olingan.

Tadqiqotning predmetini O'zbekiston Respublikasi Oliy harbiy ta'lim muassasalari kursantlarining jismoniy tayyorgarlik mashg'ulotlarini tuzilishi va mazmuni tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda ilmiy uslubiy adabiyotlarni tahlil qilish, sohaga oid meyoriy-huquqiy hujjatlarni tahlil qilish, pedagogik kuzatishlar, pedagogik testlash, pedagogik tadqiqot, matematik-statistika usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

oliy harbiy ta'lim muassasalari kursantlarining harbiy-amaliy tayyorgarligini oshirish uchun talab etiladigan jismoniy tayyorgarlik nazorat mashqlarni darajasi bo'yicha vositalar (qo'l jangi amallarini maxsus kompleksi – brusda qo'llarni bukib yozish va turnikda ko'tarilib aylanish kabi) klasterini ishlab chiqish hisobiga maxsus harakat ko'rsatkichlari oshirilgan;

oliy harbiy ta'lim muassasalari kursantlarining funksional holatini nazorat qilish uchun jismoniy tayyorgarlik jarayonida to'siqlar tagidan emaklab, suniy va tabiiy to'siqlarni yengib o'tish hamda tog' tayyorgarligini oshirishga qaratilgan mashqlar (tevarak atrof ko'rinishi cheklangan sharoitlarda tugunlarni bog'lash kabi) kompleksini qo'llash hisobiga jismoniy va maxsus tayyorgarliklarini oshiruvchi mashg'ulot yuklamalar optimallashtirilgan;

oliy harbiy ta'lim muassasalari kursantlarining psixologik holatini aniqlash uchun ruhiy holati bo'yicha rivojlantirishga qaratilgan yetakchi sifatlarni (suvga sakrashda jasorat va juratlilik-qatiyatlilik Erdola testi kabi) rivojlantirish hisobiga murakkab vaziyatlarda o'zini boshqara olish imkoniyatlari oshirilgan;

oliy harbiy ta'lim muassasalari kursantlarining jangovar tayyorgarligini oshirish uchun jismoniy va jangovar tayyorgarliklarini oshirishga qaratilgan "Harbiy majmuaviy mashqlar" mashg'ulot kompleksi turli vaziyatlarda jangovar harakatlarni (to'siqlar yo'lagini yengib o'tish va ommaviy qirg'in qurollaridan himoyalani kabi) o'zlashtirish hisobiga takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

oliy harbiy ta'lim muassasalari kursantlarning harbiy-amaliy va jismoniy tayyorgarligini takomillashtirish uchun maxsus mashqlar majmuasi ishlab chiqilgan;

oliy harbiy ta'lim muassasalari kursantlarning harbiy-amaliy va jismoniy tayyorgarligini takomillashtirish orqali jangovar tayyorgarligini oshiruvchi mashqlar majmuasi ishlab chiqilgan;

oliy harbiy ta'lim muassasalari kursantlarining harbiy-amaliy va jismoniy tayyorgarligini takomillashtirish bo'yicha ishlab chiqilgan ilmiy tavsiyalar (O'zbekiston Respublikasi mudofaa vazirining 2020-yil 7-maydagi 333 – sonli buyrug'i) mudofaa vazirligi tizimidagi barcha oliy harbiy ta'lim muassasalarining amaliy mashg'ulotlarida qo'llanilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqotlardan olingan natijalarning ishonchliligi nazariy va uslubiy baza, ilmiy tadqiqotning ketma-ketligi, jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlar nazariyasi uslubiyati sohasidagi vatanimiz va chet el olimlari, shuningdek, amaliyotchi murabbiylarning fikrlariga asoslanganligi, tadqiqot vazifalariga mos keluvchi va o'zaro bir-birini to'ldirib boruvchi tadqiqot uslublarining qo'llanilganligi, olingan natijalarning matematik-statistik tahlil qilish usullari yordamida qayta ishlab chiqilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati kursantlar tomonidan musobaqalarda qo'llaniladigan hamda g'alaba keltirgan texnik harakatlarini o'rganish va shu texnik usullar asosida ishlab chiqilgan dasturni kursantlarning mashg'ulotlar jarayoniga tatbiq etish asosida umumqo'shin kursantlar tomonidan bellashuvlarni olib borishning ilmiy mohiyati ochib berilgan hamda mazkur olingan ma'lumotlar sport nazariyasi va uslubiyati sohasidagi nazariy bilimlarni boyitish va kengaytirishga yordam berishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati umumqo'shin kursantlar tomonidan qo'llaniladigan asosiy texnik usullar, musobaqa faoliyatida qo'llaniladigan texnik harakatlar va umumqo'shin kursantlarning individual xususiyatlari aniqlanganligi va natijalari musobaqa jarayonida ko'p qo'llaniladigan asosiy texnik-taktik harakatlarni rivojlantirish uchun maxsus mashqlar texnologiyasini ishlab chiqish va me'yorlash hamda tavsiyalarni mashg'ulot jarayoniga joriy etishga imkon yaratilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Oliy harbiy ta'lim muassasalari kursantlarning jismoniy va harbiy – amaliy tayyorgarligini takomillashtirish bo'yicha o'tkazilgan tajribalar asosida:

oliy harbiy ta'lim muassasalari kursantlarining harbiy-amaliy tayyorgarligini oshirish uchun talab etiladigan jismoniy tayyorgarlik nazorat mashqlarni darajasi bo'yicha vositalar (qo'l jangi amallarini maxsus kompleksi – brusda qo'llarni bukib yozish va turnikda ko'tarilib aylanish kabi) klasterini ishlab chiqish bo'yicha takliflar Oliy harbiy ta'lim muassasalari kursantlarning jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlarini shakllantirishda jismoniy mashqlardan tuzilgan harakatlar samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan dasturi ta'lim jarayoniga tatbiq etilgan (O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining 2023-yil 4-dekabrda 15/268-sonli dalolatnomasi). Natijada tadqiqot yakunida tajriba guruhi kursantlarining jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlari 15% ga yaxshilangan;

oliy harbiy ta'lim muassasalari kursantlarining funksional holatini nazorat qilish uchun jismoniy tayyorgarlik jarayonida to'siqlar tagidan emaklab, suniy va tabiiy to'siqlarni yengib o'tish hamda tog' tayyorgarligini oshirishga qaratilgan mashqlar (tevarak atrof ko'rinishi cheklangan sharoitlarda tugunlarni bog'lash kabi) kompleksini qo'llash hisobiga jismoniy va maxsus tayyorgarliklarini oshiruvchi

mashg'ulot yuklamalar optimalashtiri bo'yicha takliflar Oliy harbiy ta'lim muassasalari kursantlarning jismoniy va harbiy-amaliy tayyorgarlik mashg'ulotlarida tatbiq etilgan (O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining 2023-yil 4-dekabrda 15/268-sonli dalolatnomasi). Natijada kursantlarning harbiy-amaliy tayyorgarligi 14% ga oshganligi aniqlangan;

oliy harbiy ta'lim muassasalari kursantlarining psixologik holatini aniqlash uchun ruhiy holati bo'yicha rivojlantirishga qaratilgan yetakchi sifatlarni (suvga sakrashda jasorat va juratlilik-qatiyatlilik Erdola testi kabi) rivojlantirish hisobiga murakkab vaziyatlarda o'zini boshqara olish imkoniyatlari tayyorgarlik mashg'ulotlarida tatbiq etilgan (O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining 2023-yil 4-dekabrda 15/268-sonli dalolatnomasi). Natijada tajriba guruhi kursantlarining bajariladigan harakatlarini bajarish uchun sarflangan vaqt ko'rsatkichlari 16 % ga oshganligi aniqlangan;

oliy harbiy ta'lim muassasalari kursantlarining jangovar tayyorgarligini oshirish uchun jismoniy va jangovar tayyorgarliklarini oshirishga qaratilgan "Harbiy majmuaviy mashqlar" mashg'ulot kompleksi turli vaziyatlarda jangovar harakatlarni (to'siqlar yo'lagini yengib o'tish va ommaviy qirg'in qurollaridan himoyalash kabi) o'zlashtirish ko'rsatkichlarini oshirishda mashg'ulotlar jarayoniga tatbiq etilgan (O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining 2023-yil 4-dekabrda 15/268-sonli dalolatnomasi). Natijada kursantlarning jismoniy tayyorgarligi 19 % ga jangovar tayyorgarligi 17 % ga, harbiy-amaliy tayyorgarligi 16 % ga oshganligini ko'rsatdi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro 4 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 10 ta ilmiy-uslubiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya qilingan ilmiy jurnallarida 3 ta maqola (2 ta respublika va 1 ta xorijiy jurnallarda) chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to'rtta bob, xulosalar, amaliy tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Ish 133 sahifali matn, 18 ta rasm, 24 ta jadval va 2 ta joriy qilinganlik dalolatnomalaridan tashkil topgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, dissertatsiyaning mavzusi bo'yicha ilmiy tadqiqotlar tahlili va muammoning o'rganganlik darajasi bayon etilgan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, shuningdek obyekt, predmeti aniqlangan. Tadqiqotning ilmiy yangiligi, natijalarning ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati tadqiqot natijalarining joriy qilinishi, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi asoslanib, ishning tuzilishi borasida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **"O'zbekiston respublikasi qurolli kuchlari kursantlarining jismoniy tayyorgarligini tashkillashtirish bo'yicha adabiyotlar**

tahlili” deb nomlangan birinchi bobida jismoniy tayyorgarlikni tuzilish nazariy asoslari ko‘rib chiqilgan va Oliy harbiy ta’lim kursantlarining jismoniy harbiy-amaliy tayyorgarligi tahlili amalga oshirilgan. O‘zbekiston Respublikasi Qurolli kuchlar Akademiyasi kursantlarini jismoniy va harbiy-amaliy tayyorgarliklarini rivojlantirishning samarali vositalaridan biri hisoblanadi. Shu bilan birga jangovar texnik tayyorgarlik asoslarini o‘zlashtirish kursantlarda o‘ziga ishonch, jasorat va stress omillariga qarshilik ko‘rsatishga yordam beradi. Kursantlarning jismoniy va harbiy-amaliy tayyorgarligi harakat qobiliyatlarini (kuch, tezlik, chidamlilik, chaqqonlik, egiluvchanlik va koordinasion qobilyatlar), rivojlantirishga qaratilgan jarayondir. Organizmning funksional imkoniyatlari, shuningdek kursantlarning faoliyat turini hisobga olgan holda ko‘nikma va malakalarni shakllantirish bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Olib borilgan tadqiqotlarning aksariyatida ta’kidlashicha, shiddatli aqliy mehnat qoida tariqasida, sog‘liq va umumiy qarshilikka tahdid soladigan vosita faolligining pasayishiga olib keladi. Bir qator tadqiqotchilar umumta’lim maktablari bitiruvchilari, o‘rta maxsus o‘quv yurtlarining bo‘lajak talabalari va turli oliy o‘quv yurtlari talabalari o‘rtasida jismoniy tayyorgarlikning nihoyatda past darajada ekanligini, katta yoshda ularning jismoniy sifatleri rivojlanishining sekinlashishini qayd etganlar (G.L.Grozovskiy, Ye.N.Disko, Ye.M.Yakush)

O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi tassarufidagi oliy harbiy ta’lim muassasalari kursantlarini jismoniy tayyorgarlik, jismoniy mashqlardan foydalanish tajribasi ochib berilgan. Jismoniy va harbiy-amaliy tayyorgarlikning turli jihatlariga bag‘ishlangan adabiyot manbalarini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, ko‘pchilik tadqiqotlar kursantlarni jismoniy tayyorgarligini rivojlantirishga qaratilgan jismoniy tayyorgarlikni harbiy-amaliy tayyorgarlik bilan birga olib borish bo‘yicha tadqiqotlar yetarli darajada olib borilmaganligi, bu esa uni samaradorligini oshirish maqsadida olib borilgan kursantlarning harbiy-amaliy va jismoniy tayyorgarligi vazifalarini asoslash uchun yangi pedagogik yondashuv bo‘yicha takliflar yoritilgan.

Dissertatsiyaning **“Tadqiqot usullari va tashkil etilishi”** deb nomlangan ikkinchi bobida qo‘llanilgan tadqiqot usullari, asosiy pedagogik tajribani tashkil etish va o‘tkazish xususiyatlari, bajarilgan ishlarining ketma-ketligi va tuzilishi, har bir usulning qisqacha mazmuni hamda foydalanish bo‘yicha tavsiyalar batafsil bayon etilgan,

Oliy harbiy ta’lim muassasalari kursantlarining jismoniy tayyorgarligini takomillashtirish bo‘yicha tadqiqotlar 2021-yildan 2024-yilgacha uchta boschiqda o‘tkazilgan.

Birinchi bosqichda (2021-2022 yy.) O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi tasarrufidagi oliy harbiy ta’lim muassasalari kursantlarning jismoniy tayyorgarligini takomillashtirish bo‘yicha xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan olib borilgan ilmiy uslubiy ishlar hamda kursantlarning jismoniy tayyorgarligini rivojlantirish bo‘yicha ishlab chiqilgan dasturlar tahlil qilindi.

Ikkinchi bosqichda (2022-2023 yy.) kursantlarning jismoniy tayyorgarligini aniqlash uchun daslabki tadqiqotlar o‘tkazildi. Shuningdek kursantlarni jismoniy tayyorgarligini takomillashtirish bo‘yicha maxsus mashqlar majmuasi

takomillashtirildi. Ushbu bosqichda quyidagi vazifalar hal qilindi: o‘rganilayotgan muammoning mohiyatiga yondashuvni oydinlashtirish; kursatlarning jismoniy tayyorgarligi mazmuniga ta’sir etuvchi muhim omillarni aniqlash va asoslash amalga oshirildi.

Uchinchi bosqichda (2023-2024 yy.) kursantlar jismoniy tayyorgarligini takomillashtirish bo‘yicha ishlab chiqilgan tadqiqot metodikasi hamda mashqlar majmuasi jismoniy tayyorgarlik mashg‘ulotlarida qo‘llanildi va samaradorligi tadqiqotlarda asoslandi.

Dissertatsiyaning “**Kursantlarning jismoniy, jangovar va harbiy-amaliy tayyorgarligini takomillashtirish**” deb nomlangan uchinchi bobida kursantlarning jismoniy tayyorgarlik ko‘rsatkichlari, kursantlarning jismoniy va harbiy-amaliy tayyorgarligini oshirish, kursantlar jismoniy va harbiy–amaliy tayyorgarligini rivojlantirish vositalari va usullari, jismoniy tayyorgarlikni oshiruvchi mashg‘ulotlar dasturi ishlab chiqilgan, kursantlarning jismoniy tayyorgarligining dastlabki ko‘rsatkichlarining harbiy-amaliy tayyorgarlik talablariga muvofiqligi tahlili keltirilgan.

Kursantlarning umumiy jismoniy tayyorgarlik va maxsus chidamliligi bo‘yicha dastlabki tadqiqotlar o‘tkazildi. O‘tkazilgan tadqiqotlar natijasida tajriba va nazorat guruhi kursantlarning umumiy jismoniy va maxsus chidamliligini aniqlash uchun 5 ta mashq tanlab olindi. Tajriba va nazorat guruhi kursantlarning umumiy jismoniy va maxsus chidamliligi ko‘rsatkichlari. 10x10 metr masofaga makkisimon yugurish mashqida tajriba guruhi 25,49±3,21, nazorat guruhi 25,32±3,29 natija, 100 metrga yugurish mashqida nazorat guruhi 18,58±2,71, tajriba guruhi 18,14±2,72 natija ko‘rsatdi. 3 kilometrga yugurishda nazorat guruhi 12,88±1,75, tajriba guruhi 12,64±1,77 natija ko‘rsatdi. Turnikda tortilish nazorat guruhi 13,13±1,91, tajriba guruhi 12,96±1,94 natija ko‘rsatdi. Turnikda ko‘tarilib, aylanish mashqini bajarishda nazorat guruhi 12,08±1,64, tajriba guruhi esa 12,33±1,72 natijalar qayd etdi (1-jadvalga qarang).

1- jadval

Nazorat va tajriba guruhi kursantlarining umumiy jismoniy tayyorgarlik va maxsus chidamlilik ko‘rsatkichlari (tajriba boshida)

Nazorat mashqlari	Nazorat guruhi			Tajriba guruhi			t	P
	\bar{X}	σ	V, %	\bar{X}	σ	V, %		
10x10 m. ga makkisimon yugurish, soniya.	25,49	3,21	12,59	25,32	3,29	12,99	0,18	>0,05
100 metrga yugurish, soniya	18,58	2,71	14,58	18,14	2,72	14,99	0,56	>0,05
3000 m.ga yugurish, daqiqa.soniya	12,88	1,75	13,59	12,64	1,77	13,97	0,47	>0,05
Turnikda tortilish, marta	13,13	1,91	14,58	12,96	1,94	14,97	0,30	>0,05
Turnikda ko‘tarilib aylanish, marta	12,08	1,64	13,57	12,33	1,72	13,95	0,52	>0,05

Kursantlarning harbiy – amaliy tayyorgarligini oshirish bo‘yicha tavsiyalarni ishlab chiqishga individual yondashuv, shuningdek, turli tayyorgarlik darajasiga ega kursantlarga taklif qilinadigan jismoniy faoliyat shiddati hisobga olindi. Jismoniy faoliyatning tavsiya etilgan ko‘rsatkichlari va qiymatlari asosida turli darajadagi mashqlarni jismoniy tarbiya va sport tajribasiga ega bo‘lgan kursantlar uchun individual dasturlar ishlab chiqilgan. So‘nggi yillarda olib borilgan tadqiqotlar uzoq masofalarni bosib o‘tish uchun shaxsiy tarkibda chidamlilikni rivojlantirish uchun tezlashtirilgan harakatning muhimligini tasdiqlaydi. Shaxsiy tarkibning zamonaviy jangovar va to‘satdan o‘tish sharoitida harakat qilishga tayyorligi uni tayyorlash vositalari va usullari bilan belgilanadi. Kursantlardan turli releflarda piyoda tez harakatlana olishi, sun‘iy va tabiiy to‘siqlarni yengib o‘ta olishi talab etadi. Faqat jismonan yaxshi rivojlangan va birinchi navbatda, juda chidamli bo‘lganlarga bu muammolarni muvaffaqiyatli hal qila oladilar. Chidamlilik sifatlarini rivojlantirishda moslashish mexanizmlari juda muhimdir.

Jismoniy faoliyatga yuqori darajada moslashish ham muvaffaqiyatli harbiy kasbiy faoliyatni, ham atrof-muhitning salbiy omillari va faoliyati ta‘siriga chidamliligini oshiradi, ya‘ni harbiy mehnatning ekstremal sharoitida muvaffaqiyatli harakatlarga yordam beradi. Harbiy mehnat va sport sohasidagi ko‘plab ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, tananing qarshiligini oshirishning eng samarali vositalaridan biri kislorod tanqisligiga, shuningdek mushaklarning intensiv faoliyatiga moslashishdir.

Organizmning funksional imkoniyatlari va moslashuv zahiralari oshirish birinchi bosqichda kursantlar uchun jismoniy tayyorgarlik dasturining asosini tashkil qilishi kerak. Bu ikkita muammoni hal qiladi: kursantlar tanasini yuqori shiddatli yuklamaga tayyorlash; tananing reaksiya kuchlanishini kamaytirishga etibor qaratiladi.

Bu xususiyatlarni samarali oshiradigan mos jismoniy mashqlarni to‘g‘ri tanlash kerak, bularga jismoniy chidamlilikni rivojlantiruvchi va tananing kislorodga yuqori ehtiyoji bilan birga keladigan mashqlar kiradi. Asosiy mushak guruhlarining kuchini bo‘g‘imlarning harakatchanligini (birinchi navbatda, son), hissiy barqarorlikni va tananing salbiy omillarga chidamliligini rivojlantirish uchun mashqlar bir vaqtning o‘zida qo‘llanilishi kerak. Shuni ta‘kidlash kerakki, agar kursantlarning jismoniy tayyorgarligi past bo‘lsa, mashg‘ulot yuklamalari kasalliklarga olib keladi. Shu sababli, bunday oqibatlarni bartaraf etish uchun dastlabki to‘rt haftada bir xil mashg‘ulot usulini qo‘llash kerak va dastlabki bosqichda mashg‘ulotlar soni ikki, keyin esa haftada uch marta bo‘lishi kerak.

Har bir mashg‘ulotda chidamlilik va kuchni rivojlantirish uchun jismoniy mashqlar bajarilishi kerak. Dastlabki 20-30 daqiqada qulay tezlikda yurish va yugurish. Shundan so‘ng umumrivojlantiruvchi mashqlar va kuchni rivojlantirish mashqlari bajariladi. Bunday holda, kuch mashqlari soni maksimalning 70% gacha yetishi kerak, har bir kuch mashqlaridan so‘ng mushaklarni bo‘shashtirish va bo‘g‘imlarda harakatchanlikni yaxshilash uchun mashqlar bajariladi (2-jadvalga qarang).

Oliy harbiy ta'lim muassasalari kursantlarini jismoniy va jangovar tayyorgarligini takomillashtiruvchi “Harbiy majmuaviy mashq” dasturi

HARBIY MAJMUAVIY MASHQ						
<i>Dasturning maqsadi</i> - O'zbekiston Respublikasi Mudofaa Vazirligi tizimidagi harbiy oliy ta'lim muassasalari kursantlarining jismoniy tayyorgarlik va sportga bo'lgan qiziqishlarini oshirish va ularni muhtazam ravishda sport bilan shug'ullanishga targ'ib qilish						
<i>Dasturning vazifalar</i> - OHTM kursantlari o'rtasida harbiy majmuaviy mashq sport turini ommalashtirish, ushbu sport turiga kursantlarni keng jalb etish va ularning jangovar mahoratini oshirish. - jismoniy tayyorgarlik va sport orqali harbiy xizmatchilarda vatanparvarlik va sadoqat bilan xizmat qilish tuyg'usini kamol topdirish.						
To'siqlar yo'lagini yengib o'tish	AK-74 quroli bilan 12-13 me'yorlarini bajarish	Ommaviy qirg'in qurollardan himoyalash me'yorlarini bajarish	Tog' tayyorgarligidan me'yorlarini bajarish bosqichi	Zil - 131 g'ildiragini ag'darib harakatlanish	Pichoq uloqtirish	To'siqlar tagidan emaklab o'tish
Xandak ichida tik turgan holatda vazni 600 gramm keladigan o'quv granata 20 metr uzoqdagi devorga (devordagi tynukka) yoki devor oldidagi o'lichami 1x2,6 m keladigan maydonchaga (granataning ushbu maydonga bevosita tushishi hisobga olinadi) uloqtirish. Birinchi granata nishonga tegmasa, granata uloqtirish amali nishonga tekkinga qadar davom ettiriladi, biroq granatalar soni uch donadan oshmaydi (agar uchala granata ham nishonga yoki belgilangan joyga tegmasa, hato uchun jarima 5 soniya qo'shiladi); Granata tegishi bilan xandak ichidan sakrab chiqadi. Tynukki to'siq ustidan sakrab o'tadi.	AK-74 qurolini noto'liq qismlarga ajratish (12-me'yor) va yig'ish (13-me'yor). - Magazinni ajratish. - Zavor tortiladi va qurol o'qizlantirish amalga oshiriladi (yani o'q bor yo'qligi tekshiriladi). - Anjomlar penalni qo'ndiq uyasidan chiqarish. - Shoimpolni ajratish. - Stvol qutisi qopqog'ini ajratish. - Qaytaruvchi mexanizmini ajratish. - Zavorni zatvor ramasidan ajratish. - Stvol og'zidagi tormoz-kompensatorni yechish. Yig'ish tartibi teskarisiga xuddi shu ketma-ketlikda bajariladi. Ishtirokchilar 13 me'yorni bajarib bo'lgach, barcha natijalar hakam tomonidan hisobga olinishi bilan yo'lak bo'ylab, keyingi bosqich tomon harakatlanadi.	4 (b) me'yor mashquiyidagi tartibda bajaradi. himoya to'plamida 4 (b) me'yorni bajarish tartibi: himoya paypoqlari kiyiladi va iplari tasmaga bog'lanadi; himoya plashi yelkada, yenglar o'tkaziladi; himoya plashi yelkasidagi iplar oldinga o'tkazilib, plash tagidagi halqaga bog'lanadi; plash tugmalari o'tkazilib, qistirgichlar o'tkaziladi; gazniqob kiyiladi va nafas rostlanadi; plashning ilimg'i bosh barmoqqa o'tkaziladi, yerda anjomlar qolmaydi, tasma plash ustidan taqiladi.	Ushbu mashq tog' tayyorgarligi bo'yicha maxsus shaharchasida amalga oshiriladi. Bunda belgilangan shartni ya'ni 2 me'yorni (tevarak-atrof ko'rinishi cheklangan sharoitlarda tugunlarni bog'lashni) bajarish talablari: harbiy xizmatchi to'liq kiyim-bosh, anjomlarida ko'zlari bog'langan holda arqonlar bilan stol oldida turadi. Mashg'ulot rahbari bittadan tugunlarni nomlanishini aytadi, harbiy xizmatchi uni tugishga kirishadi. -Akademik tugun. -To'qimachi "Grepvayn" tuguni. -Avstriya tuguni. -Sakkizlik, qayta sakkizlik tuguni. -Yo'l boshlovchi sakkizlik tuguni. -Siquvchi tugunlar Baxmana, mashar, pursik. -Bulin tuguni. -Uzang tuguni. -Qarana-qarshu tuguni. -Bromskot tuguni.	Ishtirokchilar balonni ag'darib holda ko'tarib harakatlanadilar. Mashqni 20 metr masofada bajarib bo'lgan ishtirokchi keyingi bosqich uchun mustaqil ravishda harakatlanadi. Balonni belgilangan joygacha ag'darib olib bormagan ishtirokchi mashqni bajargan sanalmaydi. Mashqni bajarmagan ishtirokchiga umumiy vaqitga nisbatan 1 daqiqqa qo'shib beriladi.	Pichoq uloqtirish marasidan 3 m uzoqlik, nishon markazi 1,50 m balandlikda o'rnatiladi. Harbiy xizmatchilar ushbu bosqichga kelgach, 3 dona pichoqni o'rnatib qo'yilgan nishonlarga qarata uloqtirishga kirishadi.	Balandligi 60 sm bo'lgan bareklar jami 10 m oralig'ida o'rnatiladi. Ushbu bosqichga yetib kelgan harbiy xizmatchilar to'siqlar tagidan emaklab o'tish amallarini bajarishga kirishadi.
				Ishtirokchilar balonni ag'darib holda ko'tarib harakatlanadilar. Mashqni 20 metr masofada bajarib bo'lgan ishtirokchi keyingi bosqich uchun mustaqil ravishda harakatlanadi. Balonni belgilangan joygacha ag'darib olib bormagan ishtirokchi mashqni bajargan sanalmaydi. Mashqni bajarmagan ishtirokchiga umumiy vaqitga nisbatan 1 daqiqqa qo'shib beriladi.	Pichoq uloqtirish marasidan 3 m uzoqlik, nishon markazi 1,50 m balandlikda o'rnatiladi. Harbiy xizmatchilar ushbu bosqichga kelgach, 3 dona pichoqni o'rnatib qo'yilgan nishonlarga qarata uloqtirishga kirishadi.	Bosqichga yetib kelgan harbiy xizmatchi mustaqil tarzda qurolni o'qlaydi va 20 metr masofadagi raqamli nishonlarga qarata o'q uzadi. O'tish uchun 5 ta o'q beriladi. O'qlar to'liq sarf qilib bo'lingach qurolni o'z joyiga qo'yadi va "FINISH" tomon harakatlanishni boshlaydi. Ushbu bosqichda eng katta ko'rsatkich to'plagan harbiy xizmatchidan shuncha soniya olib tashlanadi.

Buning yordamida ma'lum texnika va harakatlarni o'rgatishda mashg'ulot joylarining sig'imi ortadi, mashg'ulotlarning zichligi oshadi. O'rganishning birinchi vazifasini hal qilish jarayonida kursantlarning jismoniy holati va ularning harbiy-amaliy tayyorgarlik talablariga muvofiqligining asosiy ko'rsatkichlari aniqlandi, harbiy ta'lim muassasalariga o'qishga kirish uchun kursantlarning funksional holati va kasallanish xususiyatlari o'rganildi

Jismoniy tarbiya va sport tajribasining harbiy-amaliy tayyorgarlik bo'yicha tavsiyalar batafsil bayon etilgan (3-jadvalga qarang).

3-jadval

Qurolli Kuchlar Akademiyasining doimiy tarkibi va kursantlari uchun jismoniy tayyorgarlik dasturi

T/r	Mavzular nomi	Umumiy soati	Mashg'ulotlar bo'yicha soatlar miqdori		
			Maruza	Amaliy	Mustaqil ta'lim
1.	Ma'ruza	8			
2.	Amaliy mashg'ulot	120			
3.	Mustaqil ta'lim	120			
4.	Ertalabki badantarbiya	50 daqiqa har kuni			
5.	Sport ishlari	6 soat haftada			
1-bosqich					
1	Ma'ruza	2	2 soat semester davomida		
2	Gimnastika va atletik tayyorgarlik	6		6	6
3	Qo'l va pichoq jangi	6		6	6
4	To'siqlarni yengib o'tish	4		4	4
5	Sport va serharakat o'yinlar	2		2	2
6	Harbiy amaliy suzish	4		4	4
7	Yengil atletika	4		4	4
8	Uslubiy tayyorgarlik	2		2	2
Jami		30 soat	2 soat	28 soat	28 soat
2-bosqich					
1	Ma'ruza	2	2 soat semester davomida		
2	Gimnastika va atletik tayyorgarlik	8		8	8
3	Qo'l va pichoq jangi	4		4	4
4	To'siqlarni yengib o'tish	6		6	6

5	Sport va serharakat o'yinlar	2		2	2
6	Harbiy amaliy suzish	4		4	4
7	Yengil atletika	2		2	2
8	Uslubiy tayyorgarlik	2		2	2
Jami		30 soat		28 soat	28 soat
3-bosqich					
1	Ma'ruza	2	2 soat semester davomida		
2	Gimnastika va atletik tayyorgarlik	4		4	4
3	Qo'l va pichoq jangi	6		6	6
4	To'siqlarni yengib o'tish	4		4	4
5	Sport va serharakat o'yinlar	4		4	4
6	Harbiy amaliy suzish	4		4	4
7	Majmuaviy mashg'ulot	4		4	4
8	Uslubiy tayyorgarlik	2		2	2
Jami		30 soat	2 soat	28 soat	28 soat
4-bosqich					
1	Ma'ruza	2	2 soat semester davomida		
2	Gimnastika va atletik tayyorgarlik	4		4	4
3	Qo'l va pichoq jangi	6		6	6
4	To'siqlarni yengib o'tish	2		2	2
5	Sport va serharakat o'yinlar	2		2	2
6	Harbiy amaliy suzish	6		6	6
7	Yengil atletika	2		2	2
8	Majmuaviy mashg'ulot	4		4	4
9	Uslubiy tayyorgarlik	2		2	2
Jami		30 soat	2 soat	28 soat	28 soat

Tadqiqotimiz davomida kursantlarning jismoniy tayyorgarlik darajasini oshirishga qaratilgan mashg'ulotni jadalligi va davomiyligi bir maromda o'sib borishiga e'tibor qaratildi. Har bir bo'linmalarning xal etadigan vazifalariga qarab mashq uchun alohida reja ishlab chiqildi. Mashg'ulotlar haftasiga kamida 3 martadan o'tkazildi. O'z natijalarini yaxshilab borayotgan kursantlarga alohida e'tibor qaratiladi. Bu bosqich bo'linmalar o'z oldiga qo'ygan vazifalarni bajarish uchun jismoniy tayyorgarlik darajasiga erishgandan keyin tugallangan hisoblanadi. Bu mashg'ulotning asosiy maqsadi jismoniy tayyorgarlik yuqori darajasini ushlab qolib, kursantlar tomonidan erishilgan natijalarni saqlashdir. Shug'ullanish jarayoni

mushaklarning barcha guruhlarini o‘z ichiga olib, haftada 3-4 marta o‘tkazildi. Mashg‘ulotlarni davomiyligi 60 dan 120 daqiqagacha tavsiya etildi.

Kursantlarni tayyorgarlik vazifalari maxsus tashkil etilgan mashg‘ulotlar jarayonida hal qilinishi kerak, ularning asosiy maqsadi psixologik chiniqtirish, jangovar faoliyatga imkon qadar yaqin sharoitlarda o‘tkaziladi. Shu bilan birga, kursantlar bilan mashg‘ulotlarni o‘yin shaklida o‘rganish uchun peytnbol qurollaridan foydalanish mumkin. Buning yordamida “urushda zarur bo‘lgan narsalarni o‘rgatish” tamoyili amalga oshiriladi (4-jadvalga qarang).


4-jadval

Oliy harbiy ta’lim muassasalari kursantlarini psixologik tayyorgarligini baholash mezonlari

Sport turlari	Yetakchi irodaviy sifatlar	Yetakchi sifatlarga yaqinlari	Testlar orqali baholash
1-guruh Yengil atletika yugurishi, suzish,	Qat’iyat	O‘zini tuta bilish, matonat	Tepping testi Tashabbuskorlik, mustaqillik, jur’atlilik, jasorat
2-guruh Gimnastika, akrobatika, og‘ir atletika, snaryadlarni uloqtirish, sakrashlar, o‘q otish	Qat’iyat, o‘zini tuta bilish	Jasorat	Spork testi Tashabbuskorlik, mustaqillik, jur’atlilik,
3-guruh Suvga sakrash, parashyutda sakrash,	Jasorat, jur’atlilik	Qat’iyat, o‘zini tuta bilish	Edola testi Tashabbuskorlik, mustaqillik
4-guruh Sport o‘yinlari (futbol, basketbol, voleybol)	Tashabbuskorlik, mustaqillik	Qat’iyat, jur’atlilik, jasorat	Tepping testi O‘zini tuta bilish, matonati
5-guruh Boks, kurash va boshqa yakkakurash turlari	Tashabbuskorlik, mustaqillik	Jur’at, jasorat	Edola testi O‘zini tuta bilish, qat’iyat, matonat


Harbiy kursantlarni irodaviy tarbiyalash kundalik, izchil davom etadigan jarayon bo‘lib, yil mobaynida to‘xtovsiz amalga oshiriladi. U sport murabbiyi va sport jamoasi tomonidan ko‘rsatiladigan ta’sirlar tizimi bilan chegaralanib qolmaydi. Bundan tashqari yakka tartibda, jamoaviy va maxsus mashg‘ulotlar o‘tkaziladi. Jamoaviy mashg‘ulotlar bo‘linma tarkibida shtatdan tashqari yo‘riqchilar rahbarligida o‘tkazildi.

Harbiy oliy ta’lim muassasalari kursantlarining jismoniy va harbiy-amaliy tayyorgarligi sinovdan o‘tkazildi. Oliy harbiy ta’lim kursantlarining jismoniy va harbiy-amaliy tayyorgarligini oshiruvchi mashg‘ulot modeli ishlab chiqildi va o‘quv mashg‘ulotlar jarayoniga tatbiq etildi (2-rasmga qarang).



2-rasm. Kursantlarning jismoniy va harbiy-amaliy tayyorgarligi vositalarini tuzilishi

